

Kuz keldi



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.



Kuz – yilning eng chiroyli fasllaridan biri. Bu fasl sentabr oyidan boshlanadi. Kunlar sekin-asta soviy boshlaydi. Yomg'ir yog'adi. Barglar sarg'ayib, to'kiladi. Dalalarda yig'im-terim ishlari boshlanadi. Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi.

Kuz – oltin fasl.



1-mashq. Gaplarni o'qing. To'g'ri va noto'g'ri fikrlarni ajratib yozing.

1. Kuzda havo issiq bo'ladi.
2. Kuzda hosil teriladi.
3. Kuz – dam olish fasli.
4. Kuzda qushlar uchib ketadi.
5. Barglar yam-yashil tusga kiradi.



2-mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplarni yozing.

1. bo'ladi, Kuzda, salqin, kunlar.
2. havo, Kuz, bulutli, faslida, bo'ladi.
3. Mustaqillik, kuzda, nishonlaymiz, bayramini.
4. hosil, boshlanadi, Dalalarda, yig'imi.
5. yoqadi, fasli, kuz, Menga.






3-mashq. So'zlardan gaplar hosil qilib yozing.



4-mashq. Rasm asosida matn tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: barglar sarg'aydi, havo salqin, o'qish boshlandi, Mustaqillik bayrami.



Lug'atdagi so'zlar ishtirokida kuz fasli haqida matn tuzing.

